

## INSON EKOLOGIYASI: TABIAT VA INSON MUNOSABATLARIGA ANTROPOSENTRISTIK YONDASHUV TAHLILI

Bayeshanov Abdulla

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada antroposentristik yondashuvning mohiyati, ijobiy va salbiy qirralari tahlil etilgan. Xususan, mazkur yondashuvning inson manfaatlariga xizmat qilishi barobarida, boshqa tirik mavjudotlar va ekosistemalarning ahamiyatini inkor etishi va ularni ekspluatatsiya qilishga olib kelishi natijasida vujudga keluvchi muammolar yoritib berilgan

**Kalit so'zlar.** Tabiat, ekosistema, antroposentrizm, ekologik muammolar, tabiat resurslari, iqlim o'zgarishi.

Inson va tabiatning o'zaro bog'liqligi tarixi va hozirgi holati ko'p jihatdan evolyutsiya, madaniyat va iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq. Ushbu munosabatlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib, insoniyatning tabiatga bo'lgan qarashlari va munosabatlarini shakllantirgan.

Dastlabki insonlar tabiatga bevosita bog'liq bo'lganlar. Ular ovchilik va termachilik, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Tabiat ularga oziq-ovqat, boshpana va boshqa zarur narsalarni taqdim etgan. Insonning butun hayot-faoliyati tabiatga bog'liq bo'lib, hattoki dastlabki jamiyatlar tabiatni muqaddas deb bilishgan va ko'plab diniy e'tiqodlar tabiat kuchlariga hurmat bilan qaragan. Tabiat va inson o'rtasidagi uzviy munosabat shu tariqa vujudga kelgan.

Inson aqliy rivojlanib borgani sayin, inson va tabiat munosabatlariga bo'lgan yondashuvlar ham o'zgarib bordi. Odam va uning tabiatga nisbatan mavqeyi, o'rnini tushunish, belgilash masalalarini ifodalovchi yondashuvlar vujudga keldi. Bular antropotsentrizm, biotsentrizm va ekotsentrizmdir. Har uchchala yondashuv inson va tabiat o'rtasidagi uzviy munosabatni o'z talqinicha ko'rib chiqadi.

Antropotsentrizm so'zi yunonchadan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi "anthropos" – inson bo'lib, sentrizm markaz ma'nosini beradi. Ya'ni bu yondashuvda inson tabiatning markazida joylashgan deb hisoblanadi. Bu nazariya inson ehtiyojlari, manfaatlar va qadriyatlari tabiatdan ustun deb qaraydi.

“G'arbda inson tabiatga qarshi qo'yilgan, ong va aql orqali tabiat ustidan nazorat qilish lozim deb hisoblangan. Bu g'oya ayniqsa Dekart, Kant va Yangi davr faylasuflari fikrida yaqqol ko'rinadi”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Rakhimova Nargiza Baxshillayevna. G'arb va sharq an'analari doirasida antroposentrizm. vol. 8 no. 02 (2025): ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. 390-391-b.

Antropotsentrik fikrlash usuli ko'pincha inson faoliyatining tabiatga ta'sirini kamaytirish yoki nazorat qilishga qaratilgan. Bunday yondashuv, tabiiy resurslarni foydalanish, iqtisodiy o'sish va rivojlanishga qaratilgan g'oyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, antropotsentrizm ekologik muammolarni insoniyatning hayoti va farovonligi nuqtai nazaridan hal qilishga urinishlarni o'z ichiga oladi. Bu g'oya odamlar tabiatdan o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun ko'pincha boshqa turlar hisobiga foydalanishi mumkin, deb ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo'lib, quyidagicha talqin etish mumkin. Ijobiy tomonlari:

Inson hayoti, sog'lig'i va farovonligiga antropotsentrizm ustuvor ahamiyat beradi, bu esa ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga olib kelishi mumkin. Antropotsentrizm insonni tabiatning boshqa mavjudotlaridan ajratib, uni o'ziga xos va yuqori maqomda ko'radi. Bu yondashuv, insonning fikrlash qobiliyati, ijodkorligi va ijtimoiy munosabatlari orqali o'zini ifoda etish imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Insonning farovonligi va sog'lig'i bu yondashuvda eng muhim omil sifatida qaraladi. Inson hayoti va sog'lig'iga e'tibor berish ijtimoiy taraqqiyotga olib kelishi mumkin. Insonning ehtiyojlarini qondirish uchun yangi texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar rivojlanadi, bu esa jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Antropotsentrizm iqtisodiy taraqqiyotga ham ta'sir qiladi. Insonning farovonligini oshirish uchun iqtisodiy resurslar va imkoniyatlar yaratilishi zarur. Sog'lom va baxtli insonlar ko'proq ishlab chiqarishga qodir bo'lib, bu iqtisodiy o'sishga olib keladi. Buning natijasida, davlatlar o'z iqtisodiyotlarini rivojlantirishga intilishadi. Buning uchun esa tabiat resurslaridan inson ehtiyojlari uchun foydalanish lozim bo'ladi.

Biroq antropotsentrizmning salbiy jihatlari ham mavjud. Bu yondashuvda tabiatni insonning resursi sifatida ko'rilganligi tufayli bir qancha jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xususan, tabiatni inson manfaatlari uchun ekspluatatsiya qilish, ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Insonning ehtiyojlari doimo ustuvor bo'lib qolsa, bu tabiatga zarar yetkazishi, iqlim o'zgarishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Antropotsentrizm insonni tabiatning markazida ko'radi, bu esa tabiiy resurslarni inson ehtiyojlariga moslashtirishga olib keladi. Biroq, bu yondashuv tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatni buzishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, insonning tabiatga bo'lgan munosabati o'zaro bog'liqlikda ko'rilishi kerak. Insoniyat faqatgina tabiatdan foydalanibgina qolmasdan, uni saqlab qolish va rivojlantirish mas'uliyatiga ham ega.

Boshqa tirik mavjudotlar va ekosistemalarning ahamiyatini inkor etish, insoniyatni tanazzulga olib kelishi mumkin. Tabiat resurslaridan foydalanishda barcha tirik mavjudotlar va ekosistemalarning manfaatlarini hisobga olish lozim. Antropotsentrik yondashuv esa ko'pincha qisqa muddatli iqtisodiy foydani birinchi o'ringa qo'yadi va uzoq muddatli ekologik oqibatlarni e'tiborsiz qoldiradi. Tabiatni inson manfaatlari uchun ekspluatatsiya qilish,



ko'pincha sistemaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Ekosistemalar murakkab, bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ularning barqarorligiga e'tiborsiz, ko'r-ko'rona yondashuv insoniyat kelajagiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Antropotsentrizmning barcha narsa inson uchun g'oyasi kelajak avlodlarga nisbatan majburiyatlarini susayishiga olib kelishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, bu muayyan bir avlodning kelajak avlod oldida axloqiy mas'uliyati mavjud bo'lib, odamzod o'z ehtiyojlarini qondirishda kelajak avlodlarning imkoniyatlarini cheklamasligi kerak. Tabiatni o'z manfaatlari yo'lida ekspluatatsiya qilish, tabiiy resurslarning tugashi va misli ko'rilmagan ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu borda insoniyatni achchiq tajribalari talaygina.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, antropotsentrizm inson hayoti, sog'lig'i va farovonligini ustuvor ahamiyatga ega deb hisoblaydi, bu esa ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga olib kelishi mumkin. Biroq, bu yondashuv tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatni buzmasligi, barcha tirik mavjudodlar hayotiy faoliyatini saqlash zarurligini unutmasligi kerak. Faqatgina inson manfaatlariga ustuvorlik berish, barcha narsani insongagina xizmat qildirish orqali barqaror va farovon rivojlanishga erishib bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rakhimova Nargiza Baxshillayevna. G'arb va sharq an'analari doirasida antroposentrizm. vol. 8 no. 02 (2025): ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. 390-391-b.
2. Bayeshanov, A. (2025). INSON EKOLOGIYASI: TABIAT VA INSON UYGUNLIGI. Академические исследования в современной науке, 4(36), 35-38.
3. Bayeshanov, A. (2025). TABIAT VA INSON. Sharq ijtimoiy fanlar jurnali, 5(06), 222–227.
4. Karimova, S. (2022). Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda milliy merosimizning orni. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(1), 485-488.